

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TA'LIMINI TASHKIL ETISH:
SINFLAR KESIMIDA

Mamatov Mashrab Norbek o'g'li

*Respublika musiqa va san'at
oliy maktabi bosh o'qituvchisi,
Qori Niyoziy nomidagi TPMI
mustaqil izlanuvchisi
mmashrab446@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida musiqa ta'limini tashkil etishning yosh va sinflar kesimidagi o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek, musiqa ta'limini tashkil etishda o'quvchining biologik va fiziologik xususiyatlari inobatga olinib ma'lum yondashuvlar tavsiya sifatida berilgan.

kalit so'zlar: umumta'lim maktabi, o'quvchi, musiqa ta'limi, ijodiy qobiliyat, milliy musiqa cholg'ulari, musiqa to'garagi

Annotation: This article analyzes the specific aspects of organizing music education in general education schools, broken down by age and grade level. It also recommends specific approaches that take into account the biological and physiological characteristics of students.

keywords: general education school, student, music education, creative ability, national musical instruments, music club

O'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqa ta'limining o'rni va ahamiyatini oshirish masalasiga bugungi kunda davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari tomonidan madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha keng miqyosli chora-tadbirlar belgilanib, madaniyat va san'at xalq ma'naviyati, jamiyat tafakkuri va yoshlar tarbiyasida beqiyos o'rin tutishi hamda bugungi kunda dunyoda eng katta kurash inson ongi va qalbini egallash uchun ketayotgan bir paytda musiqa ta'limi aqliy va ruhiy tarbiyaning asosiy vositalaridan biri ekanligi ta'kidlanmoqda³⁴.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqaning intellektual rivojlanishga ta'siri yosh, mashg'ulot turi, mashg'ulotning davomiyligi va individual xususiyatlar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu jihatlardan kelib chiqib, o'quvchilarda musiqa cholg'ulari vositasida intellektual qobiliyatlarni tarbiyalashni tatbiq etishning yosh xususiyatiga ko'ra quyidagicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. 7 – 10 yosh oralig'idagi o'quvchilar (1 – 4-sinflar) uchun:

³⁴ <https://president.uz/oz/lists/view/9275>

1) *yoshga mos musiqa cholg'usini tanlash* – bunda o'quvchining jismoniy va ruhiy xususiyatidan kelib chiqib, unga mos *doira, dutor, rubob* kabi cholg'ular tanlanishi maqsadga muvofiq;

2) *amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish* – o'yinga asoslangan holda musiqa amaliyotiga oid bilimlar berish. Masalan, chapak mashqi orqali ma'lum ritmlarni ijro etish, musiqa mos kuylay olish kabi mashg'ulotlar ijobiy natijalar beradi;

3) *nota savodxonligini shakllantirish* – o'quvchi musiqa cholg'usini challishdan oldin musiqiy savodxonlikka ega bo'lishi muhim. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'limning dastlabki bosqichlarida nota savodxonligini shakllantirishga yo'naltirilgan kichik nazariy mashg'ulotlar olib borilishi kerak. Har bir cholg'uning xususiyatidan kelib chiqib, turli xil o'yin mashg'ulotlaridan foydalangan holda nota, nota yo'llari, musiqiy cho'zimlarni o'rgatish samaralidir.

2. 11 – 13 yosh oralig'idagi o'quvchilar (5 – 7-sinflar) – ushbu yosh oralig'idagi o'quvchilar uchun musiqa darslarini tashkil etish o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Chunki bu yoshda o'quvchilarning mustaqil dunyoqarashi shakllana boshlagan, musiqiy didi o'zgarayotgan davrdir. 5 – 7-sinflarda musiqa ta'limining bosh maqsadi o'quvchidan musiqachi shakllantirish emas, balki unda musiqiy madaniyatni, estetik didni va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishdan iborat. Ushbu xususiyat va maqsadlardan kelib chiqib, musiqa ta'limini tashkil etishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1) *fanlararo integratsiya* – bunda musiqa fani boshqa fanlar bilan, masalan, tarix, ona tili, adabiyot, tasviriy san'at, fizika, matematika va boshqa shu kabi fanlar bilan aloqadorlikda o'rgatilishi samaralidir. Jumladan, cholg'uning yaratilish tarixi, musiqa terminlari va ularning xususiyatlari, she'r matni ohangini aniqlash topshiriqlari, musiqani tinglab, undan olingan taassurotni rasmda ifodalash, musiqiy cholg'ularning tovush imkoniyatlari, musiqiy cho'zimlarning sanalishlari kabi usullardan foydalanish musiqa ta'limining imkoniyatlarini yana ham ochib beradi;

2) *kommunikativ yondashuv* – yosh xususiyatini inobatga olgan holda bosh maqsad musiqa ta'limi orqali o'quvchida mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda o'z qarashlarini himoya qilish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Jumladan, "Klassik musiqa va zamonaviy estrada: inson ruhiyatiga ta'siri", "Sun'iy intellekt va inson tomonidan yaratilgan musiqalar farqi" kabi mavzularda munozarali darslarni tashkil etish orqali o'quvchi dunyoqarashi o'rganiladi;

3) *raqamli yondashuv* – raqamli dunyoning faol foydalanuvchisi sanalgan 11 – 13 yosh oralig'idagi o'quvchilarga musiqa ta'limi o'z qiziqishlaridan kelib chiqib berilishi ijobiy natijalar beradi. Masalan, telefon uchun mo'ljallangan musiqiy dasturlardan foydalangan holda berilgan kuyni har xil tempda va turli

cholg'ularda ijro qilib ko'rish. Raqamli yondashuv jonli ijro va musiqani hissiy anglashni inkor etmasligi lozim.

3. 14 – 17 yosh oralig'idagi o'quvchilar (8 – 11-sinflar) – ushbu yosh oralig'idagi o'quvchilar biologik va fiziologik jihatdan o'zgarishlar davrini boshdan kechirayotgan o'z dunyoqarashi hamda musiqiy didiga ega bo'lgan avloddir. 8 – 11-sinflarda musiqa fani umumta'lim maktablarida to'garak tarzida tashkil etiladi. Ushbu to'garaklarning asosiy maqsadi har bir o'quvchi biror musiqiy cholg'uni amaliy jihatdan ijro etishni bilishi hamda musiqiy asarlarni baholay olishini rivojlantirishdan iborat. 8-sinfgacha musiqa fani orqali shakllantirilgan musiqiy bilim va ko'nikmalar 8 – 11-sinflar kesimida musiqa to'garaklari orqali rivojlantirib boriladi. Shuning uchun ushbu yosh doirasiga alohida yondashuvlar talab qilinadi. Jumladan:

1) qiziqishdan kelib chiqib tashkil etish – o'quvchilar tinglaydigan zamonaviy musiqa yo'nalishlarini, masalan, pop, rok, elektron musiqa va sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan musiqalarni rad etmasdan, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish lozim. Masalan, ushbu yo'nalishlarda yaratilgan kuylarni milliy cholg'ularda qayta ijro etish mashg'ulotlarini tashkil etish;

2) tizimli amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish – hafta davomida eng kami uch marotaba mashg'ulotlar tashkil etilishi va dars oralig'i o'rtacha 40 daqiqani tashkil etishi lozim;

3) yakka ijrodan guruhli ijroga yo'naltirish – bu yosh oralig'ida o'quvchilarda o'zini mustaqil shaxs sifatida jamiyatga ko'rsatish istagi yetakchi sanaladi. Biroq ularni jamiyat bilan o'zaro aloqaga kirisha oladigan shaxsga aylantirish uchun ansambl darslarini tashkil etish muhimdir. Bu orqali o'quvchida o'zgalarni tinlash, his qilish, jamoaviy birlikni hosil qilishda o'z o'rnini borligini anglab yetish kabi jihatlar tarbiyalanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, umumta'lim maktablarida musiqa ta'limini tashkil etishdan asosiy maqsad o'quvchilarni ma'naviy boy, ruhan sog'lom, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni qadrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishdan iborat bo'lishi lozim. Shuningdek, musiqaning o'quvchi intellektual rivojlanishiga ta'sirini oshirishda ta'lim jarayoniga o'ziga xos yondashuvlarni targ'ib etish orqali erishiladi. Bunda yosh va sinflar xususiyatidan kelib chiqib yondashish samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кадиров Р. Музыкальная педагогика. – Ташкент, 2009. – 241 б.
2. Хўжаева М. Умумутаълим мактабларида мусиқа ўқитиш методикаси. – Тошкент 2008. – 250 б.
3. Shayxonova X. Intelektual salohiyat – taraqqiyot mezon. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 112 b.
4. <https://president.uz/oz/lists/view/9275>